

# OLIMLAR NIGOHİ

ILMIY OMMABOP JURNAL

4-SON 2026-YIL

ISSN 3060-5458



BUXORO -2026



# OLIMLAR NIGOHI

**ilmiy ommabop jurnal  
4-son (2026-yil, mart)**

**Jurnal 2025-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro -2026**

**OLIMLAR NIGOHI  
Ilmiy ommabop jurnali  
2026, №3**

Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi.

**Bobojonova Feruza Xayatovna**  
Buxoro davlat universiteti t.f.n, dotsent.  
ORCID: 0000-0002-3255-2286  
[feruzahayatovna@mail.ru](mailto:feruzahayatovna@mail.ru)

## BUXORO TARIXIY OBIDALARI-XALQ MADANIYATI VA MA'NAVIYATINING BEBAHO MEROSI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro vohasidagi tarixiy obidalarining me'moriy, madaniy va ma'naviy ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Maqolada Buxorodagi madrasalar, masjidlar, maqbaralar, minoralar, savdo inshootlari, karvonsaroylar, hovuz va hammomlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, Buxoro tarixiy merosining jahon sivilizatsiyasidagi o'rni hamda ularni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, tarixiy obidalar, madrasalar, masjidlar, Ark qal'asi, karvonsaroylar, minoralar, hovuzlar, hammomlar, madaniy meros.

**Аннотация.** В данной статье на основе научных источников анализируется архитектурное, культурное и духовное значение исторических памятников Бухарского оазиса. В статье освещается роль медресе, мечетей, мавзолеев, минаретов, торговых сооружений, караван-сараяв, водоёмов и бань Бухары в жизни общества. Особое внимание уделяется месту исторического наследия Бухары в мировой цивилизации, а также вопросам его сохранения и передачи будущим поколениям.

**Ключевые слова:** Бухара, исторические памятники, медресе, мечети, крепость Арк, караван-сарай, минареты, водоёмы, бани, культурное наследие.

**Annotation.** This article analyzes the architectural, cultural, and spiritual significance of historical monuments of the Bukhara oasis based on scientific sources. It highlights the role of madrasas, mosques, mausoleums, minarets, commercial buildings, caravanserais, reservoirs, and bathhouses of Bukhara in the social life of society. Special attention is paid to the place of Bukhara's historical heritage in world civilization, as well as issues of its preservation and transmission to future generations.

**Key words:** Bukhara, historical monuments, madrasas, mosques, Ark fortress, caravanserais, minarets, reservoirs, bathhouses, cultural heritage.

Buxoro qadimdan Sharq sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri bo'lib, o'zining boy tarixiy-me'moriy merosi bilan dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan ushbu qadimiy shahar asrlar davomida ilm-fan, madaniyat, din va savdo markazi sifatida rivojlangan. Shu bois Buxoro hududida yuzlab tarixiy obidalar, qadimiy madrasalar, masjidlar, maqbaralar, karvonsaroylar va boshqa me'moriy inshootlar qad rostlagan.

1993-yilda Buxoroning tarixiy markazi YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu uning jahon miqyosidagi tarixiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Mustaqillik yillarida tarixiy obidalarni asrash, restavratsiya qilish va ularni turizm obyektlariga aylantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Natijada Buxoro bugungi kunda nafaqat O'zbekistonning, balki butun musulmon olamining muqaddas va tarixiy shahri sifatida e'tirof etilmoqda.

Hozirgi kunda Buxoro viloyatida jami 660 ta moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan. Ularning: 231 tasi arxeologik obyektlar, 364 tasi arxitektura yodgorliklari, 22 tasi tarixiy-me'moriy majmualar, 19 tasi monumental san'at asarlari, 24 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu obyektlarning: 331 tasi respublika

ahamiyatidagi, 329 tasi mahalliy ahamiyatdagi madaniy meros obyektlari sifatida muhofazaga olingan.

Buxoro tarixiy obidalarini funksional jihatdan bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Eng katta guruhni diniy-me'moriy obidalar tashkil etadi. Jumladan, shaharda 47 ta masjid, 39 ta madrasa, ko'plab maqbara va ziyoratgohlar mavjud. Ulug'bek, Mir Arab, Abdulazizxon, Modarixon kabi madrasalar o'z davrida ilm-fan markazi vazifasini bajargan. Ayniqsa, Mir Arab madrasasi bugungi kunda ham faoliyat yuritayotgan eng mashhur diniy ta'lim maskanlaridan biridir.

Masjidlar orasida Mag'oki Attori, Baland, Namozgoh, Kalon masjidi kabi obidalar alohida ahamiyatga ega. Ularning aksariyati XII–XIX asrlarda bunyod etilgan bo'lib, o'zining noyob me'moriy uslubi va bezaklari bilan ajralib turadi. Buxorodagi maqbaralar ham katta tarixiy va diniy ahamiyatga ega. Ismoil Somoniy maqbarasi Markaziy Osiyo me'morchiligining eng qadimiy va nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Chashmai Ayub, Sayfiddin Boharziy, Turki Jandi, Imom G'azzoliy maqbaralari ham ziyoratchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Tarixiy-me'moriy majmualar orasida Poyi Kalon, Labi Hovuz, Ark qal'asi, Chor Bakr, Gavkushon va Sitorai Mohi Xossa majmualari alohida o'rin tutadi. Ushbu majmualar tarkibida madrasa, masjid, hovuz, minora, darvozaxona va boshqa ko'plab inshootlar mavjud bo'lib, ular Buxoro me'morchilik maktabining yuksak namunasi sanaladi.

Savdo va iqtisodiy hayot bilan bog'liq inshootlar ham Buxoro tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shaharda XVI asrga oid Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon kabi savdo gumbazlari hamda ko'plab karvonsaroylar faoliyat yuritgan. Tarixiy manbalarda Buxoro Buyuk ipak yo'lidagi eng muhim savdo markazlaridan biri sifatida qayd etiladi. Mudofaa inshootlari ham Buxoro tarixining muhim qismidir. Ark qal'asi, shahar devorlari, qadimiy darvozalar va qo'rg'on qoldiqlari shaharning siyosiy va harbiy markaz bo'lganidan dalolat beradi. Ark qal'asi bir necha asrlar davomida Buxoro amirlarining qarorgohi bo'lib xizmat qilgan.

Buxoro "ochiq osmon ostidagi muzey" sifatida ham mashhur. XIX asr hujjatlarida shaharda 300 dan ortiq hovuz mavjud bo'lgani qayd etilgan. Labi Hovuz, Bolo Hovuz kabi suv inshootlari nafaqat shaharning suv ta'minoti, balki ijtimoiy hayot markazi sifatida ham muhim rol o'ynagan. Buxoro nafaqat me'moriy obidalari, balki muqaddas qadamjolari bilan ham mashhurdir. "Yetti pir" nomi bilan mashhur bo'lgan Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol kabi ulug' allomalar bilan bog'liq ziyoratgohlar musulmon olamining eng muqaddas maskanlari qatoriga kiradi.

XX asr boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahrida: 400 ta madrasa, 296 ta masjid, 18 ta jome' masjidi, 13 ta kutubxona, 96 ta qiroatxona va maktabxona faoliyat yuritgan. Bu ko'rsatkichlar Buxoroning o'sha davrda ham yirik ilm-fan va ma'rifat markazi bo'lganini ko'rsatadi.

Buxoro Ark qal'asi O'rta Osiyodagi eng qadimiy va noyob me'moriy yodgorliklardan biri hisoblanadi. U qadim zamonlardan boshlab Buxoro hukmdorlarining siyosiy, ma'muriy va harbiy markazi vazifasini bajargan. Ark qal'asi shaharning markaziy qismida, sun'iy ravishda barpo etilgan baland tepalik ustida qurilgan bo'lib, uning balandligi taxminan 16–20 metrni tashkil etadi. Qal'aning umumiy maydoni 4 gektar atrofida bo'lib, tashqi devorlarining uzunligi qariyb 789–800 metrga tengdir. Shu sababli Ark "shahar ichidagi shahar" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Ark qal'asining dastlabki asoslari miloddan avvalgi IV asrda barpo etilgan. Tadqiqotchilar tomonidan 1976–1978 yillarda olib borilgan qazish ishlari davomida qal'aning bir necha tarixiy bosqichlarda qayta qurilgani aniqlangan. Dastlabki devorlar paxsadan qurilgan bo'lsa, keyinchalik xom g'isht va pishiq g'isht bilan

mustahkamlangan. Ayniqsa XV–XX asrlarda Ark hududi qayta rejalashtirilib, yangi saroy va ma'muriy binolar qurilgan.

Tarixiy manbalarda Ark “ko‘handiz”, “hisor”, “qal‘a”, “qasr” kabi nomlar bilan ham tilga olinadi. Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Ark qal‘asi haqida ilk yozma ma‘lumotlar uchraydi. Unda Buxoro hokimi Bidun tomonidan qal‘a bir necha marta qayta tiklangani va donishmandlar maslahati bilan “Katta ayiq” yulduz turkumi shaklida qurilgani qayd etiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, Arkning bunyod etilishi afsonaviy qahramon Siyovush nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u Buxoro shahrining asoschilaridan biri sifatida tilga olinadi.

Ark qal‘asi uzoq asrlar davomida Buxoro amirlarining qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan. Bu yerda amir, uning oilasi, bosh vazirlar, harbiy qo‘mondonlar va ko‘plab saroy amaldorlari yashagan. XX asr boshlarida Ark hududida taxminan 3000 ga yaqin aholi istiqomat qilgani qayd etilgan. Kunduzi esa qal‘ada 80 ga yaqin mirzo, 30–40 nafar harbiy xizmatchi, 20 dan ortiq oshpaz, zargar, duradgor va boshqa xizmatkorlar faoliyat olib borgan. Qal‘a ichida ko‘plab me‘moriy inshootlar mavjud bo‘lgan. Jumladan: Jome masjidi; Ko‘rinishxona (qabul marosimlari o‘tkaziladigan joy); Zarbxona; Harbiy mahkamalar; Haram va turar-joy binolari; Xazina; Hammom; Otxona; Zindon; Kutubxona va ustaxonalar.

Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Arkdagi kutubxona o‘z davrining eng boy ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan. Abu Ali ibn Sino ushbu kutubxonada ilgari uchramagan noyob asarlarni o‘qiganini alohida ta‘kidlagan. Bu holat Arkning nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan va madaniyat o‘chog‘i bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Ark qal‘asi me‘morchiligida mudofaa tizimi alohida ahamiyat kasb etgan. Qal‘aga ko‘tariluvchi pandus yo‘li orqali kirilgan va kirish qismi ikki ulkan minorasimon “guldasta”lar bilan bezatilgan. Ichki yo‘laklarda jami 25 ta tokcha mavjud bo‘lib, ayrimlari zindonlarga olib borgan. Ayniqsa “Kanaxona” deb atalgan yer osti zindonlari xavfli jinoyatchilarni saqlash uchun mo‘ljallangan.

1920-yilda Buxoroda yuz bergan siyosiy voqealar natijasida Arkda katta yong‘in sodir bo‘lib, qal‘aning ko‘plab binolari vayron bo‘lgan. Hozirgi kunda me‘moriy obidalarning taxminan 20 foizigina saqlanib qolgan. Shunga qaramasdan, Ark qal‘asi bugungi kunda ham O‘zbekistonning eng muhim tarixiy-me‘moriy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra: Ark balandligi — 16–20 metr; Maydoni — 4 gektar; Devorlari uzunligi — 789–800 metr; Arkdagi aholi soni XX asr boshida — taxminan 3000 kishi; Qushbegi xizmatkorlari — 80 nafar; Harbiy xizmatkorlar — 30–40 nafar; Hunarmand va xizmat ko‘rsatuvchilar — 50 nafardan ortiq; Arkdagi saqlanib qolgan inshootlar — taxminan 20%.

Ko‘hna Buxoro asrlar davomida nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun islom olamining yirik ilm-ma‘rifat markazlaridan biri sifatida tanilgan. Bu shaharning shuhrati, avvalo, unda faoliyat yuritgan ko‘p sonli madrasalar, mashhur ulamolar va yuksak darajadagi diniy-ma‘rifiy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan. Manbalarda qayd etilishicha, Buxorodagi dastlabki madrasalar IX–X asrlardayoq shakllangan bo‘lib, 937-yilda yong‘inda zarar ko‘rgan “Forjak” madrasasi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi madrasalardan biri hisoblanadi. Buxoro madrasalari nafaqat diniy ta‘lim markazi, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Ularda ulamolar, qozilar, davlat amaldorlari, mutafakkirlar va ijodkor ziyolilar tayyorlangan. XVII asr muarrixi Mahmud ibn Valiy Buxoroni “olimlar va ilm-fan bulog‘i” deb atagan bo‘lsa, XIX asrda shaharga kelgan rus sayyohlari Ye.K. Meyendorf va N. Xanikov ham Buxoroni musulmon olamining yirik ilm markazi sifatida ta‘riflaganlar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida madrasalar soni haqida turli ma‘lumotlar uchraydi. Abdurauf Fitrat va Sadridin Ayniy 200 ta, Sadri Ziyoyev 204 ta, Muhammad Ali Baljuvoni esa 400 ta madrasa mavjudligini qayd etgan. 1914-yilgi arxiv hujjatlarida esa amirlikda 350 ta madrasa faoliyat yuritgani ko‘rsatiladi. Tadqiqotchi O.A. Suxareva ma‘lumotiga ko‘ra, faqat Buxoro shahrining o‘zida 133 ta madrasa bo‘lgan. L.I. Rempel esa XX asr boshlarida shaharda 34 ta oliy, 35 ta o‘rta va 100 dan ortiq quyi

darajadagi madrasalar mavjudligini ta'kidlaydi. Bu ma'lumotlar Buxoroning o'sha davrda Markaziy Osiyodagi eng katta ta'lim markazlaridan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Madrasalarning moliyaviy asosini vaqf mulklari tashkil etgan. Vaqf daromadlari hisobiga madrasa binolari ta'mirlangan, mudarrislar, talabalar va xizmatchilarning ehtiyojlari qoplangan. Yirik madrasalarning yillik daromadi 40 mingdan 250 ming tangagacha yetgan. Masalan, Ko'kaldosh va Miri Arab madrasalarining yillik daromadi 150 ming tanga, Gavkushon madrasasini 190 ming tanga, Ja'farxo'ja madrasasini esa 350 ming tanga bo'lgan. Abdurauf Fitratning ma'lumotiga ko'ra, Buxoro madrasalarining umumiy vaqf daromadi 4 million 276 ming tangadan ortiqni tashkil etgan. Bu esa madrasalarning iqtisodiy jihatdan mustahkam muassasa bo'lganini ko'rsatadi.

Buxoro madrasalarida ta'lim tizimi an'anaviy islomiy ilmlar bilan bir qatorda mantiq, falsafa, matematika, astronomiya, tibbiyot va geografiya kabi dunyoviy fanlarni ham qamrab olgan. Talabalar ta'limi uch bosqichda — adno (boshlang'ich), avrot (o'rta) va a'lo (yuqori) darajalarida amalga oshirilgan. To'liq ta'lim jarayonida 137 tagacha kitob o'qitilgan. Darslar asosan arab tilida olib borilgan bo'lib, ta'lim jarayoni munozara va bahs usuliga qurilgan. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirgan.

Manbalarda qayd etilishicha, XVIII asr oxirida Amir Shohmurod davrida Buxoro madrasalarida 30 mingga yaqin talaba tahsil olgan. Ammo Rossiya imperiyasining cheklov siyosati natijasida XX asr boshlariga kelib talabalar soni 10 ming nafar atrofida qolgan. Shunga qaramasdan, Buxoro madrasalariga Qrim, Tatariston, Kavkaz, Afg'oniston, Eron, Hindiston va Qashqardan talabalar kelib tahsil olganlar.

Buxoro madrasalari jamiyatning ma'naviy hayotida ham katta o'rin tutgan. Ular ilmfan, axloq, din va madaniyat markazi vazifasini bajarib, shaharning ijtimoiy muhitini shakllantirgan. Amir Shohmurod, Amir Haydar va Amir Olimxon kabi hukmdorlar madrasalar qurdirib, ilm ahliga homiylik qilganlar. Ayniqsa, Amir Haydarning o'zi ham mudarrislik bilan shug'ullangani va 400–500 nafar shogirdga dars bergani haqida ma'lumotlar mavjud.

Buxoro qadimdan Buyuk Ipak yo'lining eng muhim savdo va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan. Shaharda bunyod etilgan minoralar, tim va toqlar, karvonsaroylar nafaqat me'moriy obidalar, balki jamiyatning iqtisodiy, diniy va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim inshootlar bo'lib xizmat qilgan. Ushbu obidalar orqali Buxoro Sharq sivilizatsiyasining yirik markaziga aylangan.

Minora arabcha "mayoq" ma'nosini anglatib, baland me'moriy inshoot hisoblanadi. Dastlab minoralar karvon yo'llarini belgilash, shaharni kuzatish va xavfsizlikni ta'minlash uchun qurilgan. IX–X asrlardan boshlab ular diniy maqsadlarda, ya'ni azon aytish uchun xizmat qilgan. Buxorodagi eng mashhur minora — Minora-i Kalon bo'lib, u 1127-yilda Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon farmoni bilan Usta Baqo tomonidan qurilgan. Minora nafaqat diniy markaz, balki uzoq masofadan kelayotgan karvonlar uchun mayoq vazifasini ham bajargan. Manbalarda kechalari minora tepasida chiroqlar yoqilgani va ular 50–60 chaqirim uzoqlikdan ko'ringani qayd etiladi.

Buxoroda Chor Minor, Vobkent minorasi kabi ko'plab tarixiy minoralar mavjud bo'lib, ular milliy me'morchilik an'alarining yorqin namunasi hisoblanadi. G'isht terish uslubi, geometrik naqshlar, arabiy yozuvli bezaklar minoralarga alohida badiiy joziba bergan. Statistik ma'lumotlar: Minora-i Kalon balandligi — 47,5 metr; Ichki zinapoyalari — 105 ta; Karvonlar uchun ko'rinish masofasi — 50–60 chaqirim; Buxoroda turli davrlarda o'nlab minoralar faoliyat yuritgan. Minoralar diniy markaz bo'lish bilan birga, shahar qudrati va me'moriy salobatini namoyish etuvchi ramz sifatida ham muhim o'rin tutgan.

Buxoro o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning eng yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan. Shaharda qurilgan usti yopiq bozorlar-tim va toqlar savdo-sotiq rivojida katta ahamiyat kasb

etgan. Bu inshootlar savdogarlarni issiq va sovuqdan himoya qilgan hamda qulay savdo muhiti yaratgan.

Buxorodagi mashhur savdo inshootlari: Toqi Zargaron-zargarlik buyumlari savdosi markazi; Toqi Sarrofon — pul ayirboshlash va moliyaviy savdo markazi; Toqi Telpakfurushon-bosh kiyimlar savdosi markazi; Abdullaxon timi-gazlama va ipak mahsulotlari bozori. Toqi Zargaron XVI asrda Abdullaxon II davrida qurilgan bo'lib, bu yerda zargarlik buyumlari, marjonlar, muhrlar va bezaklar sotilgan. Savdo rastalariga arab, hind, fors, rus va xitoylik savdogarlar kelgan. Bu holat Buxoroning xalqaro savdo markazi bo'lganini ko'rsatadi. Toqi Sarrofon esa pul ayirboshlash markazi sifatida faoliyat yuritgan. Bu yerda sarroflar xorijiy pullarni almashtirish va maydalash bilan shug'ullangan. Statistik ma'lumotlar: 1913-yilda Buxoroda 34 ta telpakdo'zlik do'koni mavjud bo'lgan; Shundan 13 tasi Toqi Telpakfurushonda joylashgan; Abdullaxon timidagi kitob bozorida 25–30 nafar kitobfurush faoliyat yuritgan; G'uzorbegi yangi madrasa kutubxonasi uchun bozordan 75 ming tanga qiymatidagi kitoblar xarid qilingan. Savdo inshootlari Buxoroda hunarmandchilik, kitobchilik, zargarlik va xalqaro savdo rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Karvonsaroylar uzoq yo'l bosib kelgan savdogarlar uchun vaqtinchalik mehmonxona, omborxona va dam olish maskani vazifasini bajargan. Ular Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo aloqalarining rivojlanishida muhim omil bo'lgan. Buxoroda XIX asr oxiriga kelib 60 dan ortiq karvonsaroy faoliyat yuritgan. Ularning ayrimlari: Jo'rabek karvonsaroyi; Rashid karvonsaroyi; Ahmadjon karvonsaroyi; Fathullojon karvonsaroyi; No'g'ay karvonsaroyi. Karvonsaroylarning birinchi qavati ombor, oshxona, otxona va xizmat xonalaridan iborat bo'lgan bo'lsa, ikkinchi qavati savdogarlar yashashi uchun mo'ljallangan. Har bir karvonsaroy markazida quduq mavjud bo'lgan. Statistik ma'lumotlar: 1830-yillarda Buxoroda 25 ta karvonsaroy mavjud bo'lgan; 1840-yillarda ular soni 38 taga yetgan; XIX asr oxirida esa 60 dan ortiq karvonsaroy faoliyat yuritgan; Har kuni karvonsaroylarda 5000 nafargacha savdogar qabul qilingan.

Karvonsaroylar orqali Buxoro xalqaro savdo markaziga aylangan. Bu yerga Hindiston, Xitoy, Rossiya, Eron va Arab mamlakatlaridan savdogarlar kelib turgan. Natijada shahar iqtisodiyoti rivojlanib, madaniy almashinuv kuchaygan. Buxoro qadimdan Sharqning yirik madaniy va diniy markazlaridan biri sifatida nafaqat masjid, madrasa va minoralari, balki hovuz va hammomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Ushbu inshootlar shahar aholisi hayotida muhim ijtimoiy, iqtisodiy, sanitariya va me'moriy vazifalarni bajargan. Ayniqsa, suv ta'minoti murakkab bo'lgan Buxoro sharoitida hovuzlar aholining asosiy ichimlik suvi manbai hisoblangan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro shahrida 100 dan ortiq, uning atroflarida esa 250 ga yaqin hovuz mavjud bo'lgan. XX asrning 20-yillarigacha eski Buxoroda jami 114 ta hovuz faoliyat yuritgan. Eng mashhur hovuzlar qatoriga Labi hovuz, Bolo hovuz, Hovuzi Devonbegi, Hovuzi Rashid va Xo'ja Zayniddin hovuzlari kirgan. Hovuzlar asosan Shohrud arig'i orqali suv bilan to'ldirilgan. Suv yer osti kanallari-tazarlar orqali oqib kelgan. Shahar aholisi uchun suv tashish bilan maxsus meshkoblar shug'ullangan. Masalan, faqat Devonbegi hovuzidan 80 nafar meshkob suv tashigan.

Hovuzlar nafaqat suv manbai, balki shahar ekologiyasi va me'morchiligida ham muhim o'rin tutgan. Ularning atrofiga tut va gujum daraxtlari ekilib, sizot suvlarining ko'tarilishi oldi olingan hamda madrasa va masjidning poydevorlari namlikdan himoya qilingan. Hovuz atroflari marmar toshlar bilan bezatilib, mustahkam zina va qirg'oqlar qurilgan. Ayniqsa, Labi hovuz ansambli Buxoro jamoatchiligining markaziga aylangan bo'lib, uning atrofida choyxona, karvonsaroy, savdo rastalari va hammomlar joylashgan.

Labi hovuz 1620-yilda Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi tomonidan bunyod etilgan. Uning uzunligi 42 metr, kengligi 36 metr va chuqurligi 5 metr bo'lgan. Bu hovuz Buxoro aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlashda eng muhim manbalardan biri hisoblangan.

Hovuz suvlari toza saqlanishi uchun maxsus nazorat tizimi mavjud bo'lgan. Har bir hovuz uchun mas'ul shaxslar tayinlangan. Biroq vaqt o'tishi bilan hovuzlarning sanitariya holati yomonlashgan. Ayniqsa, 1920-yilda Buxoro amirligi bombardimon qilingach, suv aylanish tizimi izdan chiqqan va suvlarning ifloslanishi natijasida rishta kasalligi keng tarqalgan. 1925-yilda professor Isayev tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlardan so'ng ko'plab hovuzlar qum bilan ko'milgan. Natijada qadimiy hovuzlarning aksariyati yo'qolib ketgan. Hozirgi kungacha ularning atigi 12 tasi saqlanib qolgan va davlat muhofazasiga olingan. So'nggi yillarda Buxoroda qadimiy hovuzlarni qayta tiklash ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Shayboniylar davriga oid "Mavlono Asiriy" hovuzi arxeologik qazishmalar natijasida topildi. Tadqiqotlarga ko'ra, hovuz zinapoyalari 5 metr chuqurlikda joylashgan bo'lib, devorlari gulganch bilan bezatilgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qadimda hovuzlar suvni tejash va uzoq muddat saqlash maqsadida puxta muhandislik asosida qurilgan.

Buxoro hammomlari ham shahar hayotida muhim o'rin tutgan. "Hammom" so'zi arabcha "issiq" ma'nosini anglatadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda bir vaqtlar 20 ga yaqin hammom mavjud bo'lgan. XX asr boshlarida shaharda 19 ta hammom faoliyat yuritgan. Ulardan eng mashhurlari Toki Sarrofon, Misgaron va Bozori Kord hammomlari hisoblangan. Hozirgi kunda qadimiy hammomlardan faqat ikkita-Hammomi Kunjak va Bozori Kord hammomlari saqlanib qolgan. Hammomlar nafaqat yuvinish joyi, balki dam olish, davolanish va ijtimoiy muloqot markazi vazifasini ham bajargan. U yerda massaj, tabobat, kosmetik muolajalar amalga oshirilgan. Ayollar hammomlarida doyalar, tabiblar va sartaroshlar faoliyat yuritgan. Erkaklar hammomlarida esa massajchilar va xalq tabiblari xizmat ko'rsatgan. Ayrim hollarda hammomlar sog'lomlashtirish maskani sifatida qaralgan.

Buxoro hammomlari muhandislik yechimlari bilan ham ajralib turgan. Ular issiqlikni saqlash maqsadida yarim yer ostida qurilgan. Issiq suv maxsus qozonlar orqali yetkazilgan, pollar ostidan issiq havo o'tkazilgan. Oqartirilgan devorlar, gumbazli shiftlar va murakkab kanalizatsiya tizimi hammomlarning yuqori darajada qurilganidan dalolat beradi. Ayrim manbalarda qadimiy tazarlar orqali biogaz hosil qilinib, suv isitilgani ham qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro vohasi tarixiy obidalari o'zining me'moriy mukammalligi, diniy-ma'rifiy ahamiyati va boy tarixiy merosi bilan nafaqat O'zbekiston, balki jahon sivilizatsiyasining bebaho hazinasidir. Ushbu obidalarni asrash, restavratsiya qilish va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

- 1.Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро. Бухоро. 2017. 185-б.
- 2.Бобожонова Феруза Хаятовна. Бухорода мактаб ва мадраса таълими тарихидан. XIX аср охири XX асрнинг бошлари. Тошкент. Наврўз. 2022.122-б
- 3.Абдусаттор Жуманазар. "Бухоро таълим тизими тарихи". – Тошкент: Академ нашр, 2017. 38-39-бетлар.
- 4.Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. – 120 б.
- 5.[Бухоро тарихий обидалари географияси 2020](#), 27-28-бетлар.
- 6.Бухоро шарқ дурдонаси.Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. 97 б.
- 7.Исмаилов Мухсинов, Меҳринисо Мухсинова. Гўзалликнинг боқий умри.(Бухоро обидалари тарихидан лавҳалар).Бухоро. 2011. 67-б
- 8.Ўзбекистон обидаларидаги битиклар Бухоро. Биринчи қисм. – Тошкент: Uzbekistan today, 2016. 560-б